



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G.G., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalarini misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonlarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**BOZOR IQTISODIYOTIDA DAVLATNING MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI
TA’MINLASH VA INQIROZGA QARSHI SIYOSATI**

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА, ОБЕСПЕЧИВАЮЩАЯ
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЙ БАЛАНС И АНТИКРИЗИСНУЮ СИТУАЦИЮ В
РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**STATE POLICY TO ENSURING MACROECONOMIC BALANCE AND ANTI-CRISIS IN
A MARKET ECONOMY**

Qurbonova Xurshida Idiyevna

Buxoro Davlat texnika universiteti, Iqtisodiyot va menejment kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosatini amalga oshirishdagi roli, instrumentlari va samaradorligi tadqiq etilgan. Klassik, neoklassik, keynscha va monetarist iqtisodiy maktablarning davlat aralashuvi to’g’risidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston uchun makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiy muvozanat, davlat tartibga solishi, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati.

В статье исследованы роль, инструменты и эффективность государства в обеспечении макроэкономического равновесия и реализации антикризисной политики в условиях рыночной экономики. Проведён сравнительный анализ взглядов классической, неоклассической, кейнсианской и монетаристской экономических школ на государственное вмешательство в экономику. В статье разработаны научно обоснованные рекомендации по обеспечению макроэкономического равновесия и совершенствованию антикризисной политики для Узбекистана.

Ключевые слова: рыночная экономика, макроэкономическое равновесие, государственное регулирование, фискальная политика, денежно-кредитная политика.

The article examines the role, instruments, and effectiveness of the state in ensuring macroeconomic equilibrium and implementing anti-crisis policy under market economy conditions. A comparative analysis is conducted of the views of classical, neoclassical, Keynesian, and monetarist economic schools regarding state intervention in the economy. The article develops scientifically grounded recommendations for ensuring macroeconomic equilibrium and improving anti-crisis policy in Uzbekistan.

Keywords: market economy, macroeconomic equilibrium, state regulation, fiscal policy, monetary policy.

Jahonda XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi davomida ro‘y bergan iqtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy hayotdagi o‘rni va rolini qayta ko‘rib chiqishni dolzarb masalaga aylantirdi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi sabab yuzaga kelgan iqtisodiy turg‘unlik, 2022-yildan boshlangan geosiyosiy keskinliklar va energiya hamda oziq-ovqat narxlaridagi keskin tebranishlar bozor mexanizmlarining o‘zi yetarli emasligini, davlatning aktiv makroiqtisodiy siyosati zarurligini yana bir bor isbotladi. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, jahon iqtisodiyotidagi belgisizlik darajasi tarixiy rekord ko‘rsatkichlarga yetib, davlatlardan moslashuvchan va samarali makroiqtisodiy siyosat

olib borishni talab etmoqda. Bozor iqtisodiyoti o‘ziga xos avtomatik tartibga solish mexanizmiga ega bo‘lsa-da, u to‘liq band bo‘lishni, narxlar barqarorligini, ijtimoiy adolatni va barqaror iqtisodiy o‘sishni o‘zi-o‘zidan ta’minlay olmaydi.

1970-yillardagi stagflyatsiya inqirozi Keynscha yondashuvga muqobil sifatida monetarist maktabning shakllanishiga olib keldi. Milton Fridmanning monetarist nazariyasiga ko‘ra, inflyatsiya har doim va hamma joyda pul hodisasidir, va davlatning pul taklifi orqali olib boriladigan siyosati makroiqtisodiy barqarorlikning eng muhim instrumenti hisoblanadi. R. Lukas, T. Sardjent va N. Uolles yangi klassik makroiqtisod maktabini yaratib, ratsional kutishlar gipotezasini ilgari surdi. Bunga javoban G. Manki, J. Stiglits, P. Romer va boshqalar yangi keynscha maktabni rivojlantirdi. 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin makroiqtisodiy nazariyada yangi to‘lqin paydo bo‘ldi. P. Krugman, J. Stiglitz, T. Piketti, M. Reinhart va K. Rogoff, O. Blanshar va boshqalar inqirozlarning sabablari va davlat anti-inqiroz siyosatining samaradorligini o‘rganishga e’tibor qaratishdi. C. Reinhart va K. Rogoffning «This Time is Different» (2009) tadqiqoti 800 yillik moliyaviy inqirozlar tahlili asosida inqirozlarning takrorlanuvchi tabiati va davlat aralashuvining zarurligini empirik isbotladi. MDH mamlakatlari va O‘zbekiston iqtisodchilarining ishlarida bozor iqtisodiyotida davlat tartibga solishi va makroiqtisodiy muvozanat masalalari akademik S.S. G‘ulomov, professorlar A. Vahobov, N.X. Jumayev, B.Y. Xodiyev, A.A. Sa’dullayev, S.K. Hamidulin, S.S. Hudoyqulov, Sh.X. Mustafoulov va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil qilingan. Mahalliy olimlar O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari, makroiqtisodiy siyosatning evolyutsiyasi va inqirozli vaziyatlarda davlatning roli masalalarini o‘rganishgan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini iqtisod fanining klassik va zamonaviy makroiqtisodiy nazariyalari, davlat tartibga solishi va inqirozga qarshi siyosat bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon Banki, XVF, OECD, ADB) hisobotlari, mualliflarning shaxsiy tahlillari va hisob-kitoblari tashkil etdi. Tadqiqot davri 2008–2024-yillarni qamrab oladi.

Makroiqtisodiy muvozanat — milliy iqtisodiyot doirasida yalpi talab va yalpi taklif, ishlab chiqarish va iste’mol, daromadlar va xarajatlar, jamg‘armalar va investitsiyalar, tovar va pul oqimlari o‘rtasidagi muvozanatli holatdir. Bu holatda iqtisodiyot resurslardan to‘liq foydalanadi, narxlar barqaror saqlanadi, ishsizlik darajasi tabiiy darajada bo‘ladi va iqtisodiy o‘sish potensial o‘sish sur‘atlariga teng bo‘ladi. Zamonaviy makroiqtisodiyotda muvozanatga erishish va uni saqlash AD–AS (yalpi talab va yalpi taklif) modeli orqali tahlil qilinadi. Ushbu modelda muvozanat narxlarning umumiy darajasi va real yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha aniqlanadi. Modelning IS–LM (tovar va pul bozorlari muvozanati) hamda IS–LM–BP (ochiq iqtisodiyot uchun) variantlari ham keng qo‘llaniladi. Makroiqtisodiy muvozanat besh asosiy o‘lchamga ega: birinchidan, mahsulot bozori muvozanati ($Y = C + I + G + NX$); ikkinchidan, pul bozori muvozanati ($M/P = L(Y, i)$); uchinchidan, mehnat bozori muvozanati (tabiiy ishsizlik darajasi); to‘rtinchidan, davlat byudjeti muvozanati (daromadlar va xarajatlar nisbati); beshinchidan, tashqi savdo (to‘lov balansi) muvozanati.

Quyidagi 1-jadvalda 2018–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2018–2024 yy.)

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM o‘sish sur‘ati, %	5,4	5,8	–0,7	7,4	5,7	6,3	6,5
Inflyatsiya darajasi, %	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
Markaziy bank stavkasi, %	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5
Davlat byudjeti taqchilligi, % YaIMga	2,1	3,9	4,4	4,6	4,0	5,5	4,2
Ishsizlik darajasi, %	9,3	9,0	10,5	9,6	8,9	6,8	6,4
Tashqi savdo balansi, mlrd USD	–5,4	–7,3	–6,1	–8,8	–11,3	–16,4	–18,2

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sabab YaIM 0,7 foizga qisqargan bo‘lsa-da, davlatning aktiv inqirozga qarshi siyosati natijasida 2021-yildanoq iqtisodiyot tezda tiklanib, 7,4 foiz o‘shishga erishildi. Inflyatsiya darajasi 2018–2019-yillardagi 14–15 foizdan 2023-yilda 8,8 foizga tushgan, biroq 2024-yilda yana 9,8 foizga ko‘tarilgan, bu energiya va kommunal xizmatlar tariflarining liberallashtirishi bilan bog‘liq. Ishsizlik darajasi 2024-yilda 6,4 foizga tushib, bu so‘nggi yillardagi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi.

2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi global iqtisodiyot uchun katta sinov bo‘ldi. Turli mamlakatlar inqirozga qarshi turli xil yondashuvlarni qo‘llagan. 2-jadvalda asosiy iqtisodiyotlarning inqirozga qarshi chora-tadbirlari va natijalari keltirilgan.

2-jadval

COVID-19 davrida inqirozga qarshi chora-tadbirlarning qiyosiy tahlili

Mamlakat	Fiskal rag‘bat (% YaIMga)	Monetar rag‘bat (foiz stavkasi pasayishi)	YaIM o‘zgarishi 2020-y., %	Tiklanish 2021-y., %
AQSh	25,5	1,50 → 0,25	–2,8	5,9
Yevro hududi	19,3	0,00 → 0,00	–6,2	5,3
Yaponiya	44,8	–0,10 → –0,10	–4,5	1,7
Xitoy	4,7	4,35 → 3,85	+2,2	8,4
Rossiya	4,5	6,00 → 4,25	–2,7	5,6
Qozog‘iston	9,0	9,25 → 9,00	–2,5	4,3
O‘zbekiston	6,1	16,00 → 14,00	–0,7	7,4

Jadvaldan ko‘rinishicha, O‘zbekiston COVID-19 davrida nisbatan kichik fiskal rag‘batga (YaIMga nisbatan 6,1 foiz) qaramay, YaIM pasayishini eng past darajada (0,7%) saqlab qola olgan va 2021-yilda 7,4 foiz o‘shishga erishgan. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi tegishli ko‘rsatkichlardan ham yuqori bo‘lib, O‘zbekistondagi inqirozga qarshi siyosatning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 2020-yil aprel-iyul oylarida amalga oshirilgan asosiy inqirozga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: 10 trillion so‘mlik Inqirozga qarshi fond tashkil etilishi; ish beruvchilarning ijtimoiy soliq stavkasini 12 foizdan 1 foizga vaqtinchalik pasaytirilishi; 75 ming nafardan ortiq kichik biznes sub‘yektlariga moliyaviy yordam ko‘rsatilishi; eng nochor oilalarga ijtimoiy yordam (480 milliard so‘m); aholiga kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni kechiktirish; Markaziy bank stavkasining 16 foizdan 14 foizga pasaytirilishi; tijorat banklariga refinansirovkalashning kengaytirilishi.

Makroiqtisodiy siyosat instrumentlari va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni aniqlash maqsadida 2010–2024-yillar uchun O‘zbekiston ma’lumotlari asosida ko‘p faktorli regression model qurildi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida YaIM o‘shish sur‘ati (Y, foizda), erkin o‘zgaruvchilar sifatida quyidagi omillar tanlandi:

- X_1 — davlat xarajatlarining YaIMga nisbatan ulushi (%);
- X_2 — Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi (%);
- X_3 — inflyatsiya darajasi (%);
- X_4 — to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning YaIMga ulushi (%);
- X_5 — eksportning YaIMga ulushi (%).

Olingan regression tenglama:

$$Y = 3,247 + 0,184 \cdot X_1 - 0,312 \cdot X_2 - 0,168 \cdot X_3 + 0,425 \cdot X_4 + 0,221 \cdot X_5$$

Modelning statistik ahamiyatlilik ko‘rsatkichlari: $R^2 = 0,876$; tuzatilgan $R^2 = 0,808$; F-statistika = 12,76 ($p < 0,001$); Durbin-Watson statistikasi = 1,94. Tenglamadan ko‘rinishicha, davlat xarajatlarining 1 foiz oshishi YaIM o‘shishini 0,184 foiz punktga oshiradi (Keynscha rag‘batga muvofiq), inflyatsiyaning 1 foiz oshishi YaIM o‘shishini 0,168 foiz punktga kamaytiradi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushi esa eng katta ijobiy ta’sirga ega — 1 foiz oshishi YaIMni 0,425 foiz punktga oshiradi. Makroiqtisodiy muvozanatni samarali ta’minlash uchun fiskal va monetar siyosatning o‘zaro muvofiqlashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Bu ikki siyosat turi o‘zaro mustahkamlovchi yoki, aksincha, bir-birini neytrallashtiruvchi yo‘nalishlarda harakat qilishi mumkin. R. Mandell va M. Fleming nazariyasiga ko‘ra, ochiq iqtisodiyotda fiskal va monetar

siyosatning samaradorligi valyuta rejimi va kapital harakatining erkinligiga bog‘liq. O‘zbekistonda 2017-yildan beri olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar fiskal va monetar siyosatning institutsional asosini sezilarli darajada takomillashtirdi. Bozor iqtisodiyoti o‘ziga xos avtomatik tartibga solish mexanizmiga ega bo‘lsa-da, u to‘liq band bo‘lish, narxlar barqarorligi va barqaror iqtisodiy o‘shishni o‘zi-o‘zidan ta‘minlay olmaydi. Shu sababli davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlash va inqirozli vaziyatlarda aktiv aralashuvi zarurat hisoblanadi. Iqtisodiy fan tarixida ushbu masalaga bo‘lgan yondashuvlar klassik liberalizmdan zamonaviy aralash modellarga qadar evolyutsion rivojlanishni boshdan kechirdi. Makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlashning asosiy instrumentlari fiskal va pul-kredit siyosati hisoblanadi. Bu ikki siyosat turining samarali muvofiqlashtirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning hal qiluvchi shartidir. Inqirozli vaziyatlarda bu instrumentlar maxsus rejimda — inqirozga qarshi siyosat doirasida qo‘llaniladi. O‘zbekiston tajribasi rivojlanayotgan davlatlar uchun samarali inqirozga qarshi siyosat namunasi bo‘la oladi. 2020-yilda amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar (10 trln so‘mlik fond, soliq imtiyozlari, ijtimoiy yordam, monetar yumshatish) YaIM pasayishini 0,7% darajasida saqlash va keyingi yillarda barqaror o‘shishga (o‘rtacha 6,4%) o‘tish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. PF-60-son — www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «2030-yilgacha O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-47-sonli Farmoni.
3. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: W. Strahan, 1776. — 1264 p.
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936. — 472 p.
5. Friedman M. A Monetary History of the United States, 1867–1960. — Princeton: Princeton University Press, 1963. — 860 p.
6. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. 19th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — 744 p.
7. Mankiw N.G. Macroeconomics. 11th ed. — New York: Worth Publishers, 2022. — 624 p.
8. Blanchard O., Leigh D. Growth Forecast Errors and Fiscal Multipliers // IMF Working Paper. — 2013. — No. 13/1. — 43 p.
9. Reinhart C.M., Rogoff K.S. This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly. — Princeton: Princeton University Press, 2009. — 512 p.
10. Krugman P. The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008. — New York: W.W. Norton, 2009. — 224 p.